SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR HOKIMI
QARORI

2024 - yil 25 - aprel 155-9-130-Q/24 Guliston shahar hokimligi

Sirdaryo viloyati hokimining 2024-yil 15-fevraldagi “Bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining yangi miqdorlarini belgilash to‘g‘risida”gi 38-9-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26- apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1326-son qarorining 4-bandi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunning 6, 14-moddalari, Sirdaryo viloyati hokimining 2024-yil 15-fevraldagi 38-9-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1.Sirdaryo viloyati hokimining 2024-yil 15-fevraldagi “Bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining yangi miqdorlarini belgilash to‘g‘risida 38-9-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qinsin.

2.Viloyat hokimining mazkur qarori bilan;

Viloyat Soliq boshqarmasi, viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi hamda “Sirdaryobozorsavdo” uyushmasining takliflari asosida bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3.Shahardagi bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Shahar davlat Soliq inspeksiyasi v.v.b (Sh.Raqibov), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (H.Ubaydullayev) bilan birgalikda:

bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining undirilishi ustidan belgilangan tartibda nazorat o‘rnatsin;

bozorlar va savdo komplekslari hududlarida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan faoliyat olib borayotgan jismoniy shaxslarni aniqlash hamda ularni soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yishni ta’minlasin;

bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining avtomatlashtirilgan bank tizimlari orqali to‘liq tushishini ta’minlash maqsadida muntazam ravishda bozorlar va savdo komplekslarida savdo joylarining sotuvchilar bilan to‘liq bandligini kuzatib borsin va hisob-kitob qilsin.

5.Guliston shahar dehqon bozori MCHJ rahbari v.v.b (T.Haydarov), Guliston shahar savdo kompleksi rahbarlari (M.Mamurov)lar ushbu qaror va uning ilovasini barchaning tanishishi uchun bozorlar va savdo komplekslari hududidagi maxsus joylarga osib qo‘yilishini ta’minlasin.

6.Shahar hokimining birinchi o'rinbosari o‘z hududlaridagi bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini to‘liq undirilishi va ulardan samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirsin.

7.Viloyat hokimining 2023-yil 29-martdagi “Bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining yangi miqdorlarini belgilash to‘g‘risida”gi 113-9-0- Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotganganligi inobatga olinsin.

8.Qaror loyihasi (Sh.Yunusov) shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9.Guliston shahar hokimligining 2024-yi 26-fevraldagi 58-9-130-Q/24-sonli qarori bekor qilinsin.

10.Qaror rasmiy veb-saytda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11.Shahar hokimligi devonxonasi mazkur qaror qonuniy kuchga kirgan kuni tegishli davlat organlari va tashkilotlarning hududiy bo‘linmalariga yuborilishini ta’minlasin.

12.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni shahar hokimining birinchi o’rinbosari (G’.Botirov) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **J.Xodjimanov**

Guliston shahar hokimining
2024-yil 25-apreldagi
155-9-130-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Guliston shahridagi bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining

MINIMAL MIQDORLARI

I. Bozor va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlarning minimal miqdori

T/r	Mahsulot turi	O‘lchov birligi	So‘m
			shahar
1.	**Mahsulotlarni savdo o‘rinlarida sotish:**		
1.1.	**Ho‘l mevalar:** olma, anor, nok, shaftoli, anjir, olxo‘ri, gilos, ko‘k va qizil sulton, o‘rik, uzum, olcha, qulupnay, malina va h.k.	1 o‘rin/kuniga	12 000
	sitrus va tropik mevalar *(apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi va h.k.)* hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho‘l mevalar.	1 o‘rin/kuniga	13 000
	Quruq mevalar, yong‘oqlar: turshak, bargak, mayiz, yong‘oq, yeryong‘oq, bodom, pistalar, sho‘rdanak va h.k.	1 o‘rin/kuniga	14 000
1.2.	**Sabzavotlar:** kartoshka, piyoz, karam, sabzi, sarimsoq, lavlagi, sholg‘om, bulg‘or qalampiri, baqlajon, patisson, pomidor, bodring *(shu jumladan, issiqxonalarda yetishtirilgan pomidor va bodring va h.k.)* hamda pishirilgan jo‘xori	1 o‘rin/kuniga	10 000
1.3.	**Poliz mahsulotlari:** handalak, qovun, tarvuz, qovoq *(6 kvadrat metrgacha)*	1 o‘rin/kuniga	15 000

1.4.	**Don mahsulotlari:** guruch, kungaboqar, yormalar *(krupa)*, bug‘doy, suli, arpa va h.k.	1 o‘rin/kuniga	10 000
1.5.	**Dukkakli mahsulotlar:** mosh, loviya, no‘xat va h.k.	1 o‘rin/kuniga	12 000

1.6.	**Sut mahsulotlari:** sut, qatiq, qaymoq, smetana, uy pishlog‘i, suzma va h.k.	1 o‘rin/kuniga	8 000
1.7.	**Tuzlamalar:** karam, bodring, pomidor va h.k.	1 o‘rin/kuniga	10 000
1.8.	**Ziravor va dorivorlar** *(zira, murch, qalampir va h.k)* **hamda asal**	1 o‘rin/kuniga	10 000
1.9.	**Ko‘katlar** *(shu jumladan, issiqxonada yetishtirilganlar)*	1 o‘rin/kuniga	8 000
1.10.	**Tuxum**	1 o‘rin/kuniga	10 000
1.11.	**Gullar va ko‘chatlar** *(6 kvadrat metrgacha)*	1 o‘rin/kuniga	12 000
1.12.	**Non mahsulotlari** *(obi non, patir va h.k)*	1 o‘rin/kuniga	10 000
1.13.	**Uyda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, pazandalik mahsulotlari va uy sharoitida tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari**	1 o‘rin/kuniga	10 000
1.14.	**Sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari va salqin ichimliklar**	1 o‘rin/kuniga	12 000
1.15.	**Milliy taomlar**	1 o‘rin/kuniga	15 000
1.16.	**Polietilen va qog‘oz paketlar, savatlar va posilka qutilar**	1 o‘rin/kuniga	10 000
1.17.	**Supurgi**	1 o‘rin/kuniga	10 000
1.18.	**Tirik baliq**	1 o‘rin/kuniga	14 000
1.19.	**Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik tovarlari** *(6 kvadrat metrgacha)*	1 o‘rin/kuniga	9 000
2.	**Go‘sht mahsulotlari:** mol, qo‘y, cho‘chqa, parranda go‘shti, jigar, dumba va h.k.	1 o‘rin/kuniga	18 000
3.	**Mahsulotlarni avtomashinalarda sotish:**		

	yengil avtomashinalarda	1 mashina	18 000
	yuk avtomashinalarda	1 mashina	30 000
	tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlarda	1 mashina	30 000
	mahsulotlarni yerdan sotish *(savdo rastalaridan tashqarida, maxsus ajratilgan joylarda) (6 kvadrat metrgacha)*	1 o‘rin/kuniga	15 000
4.	**Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun):** shrot, sheluxa, kombikorm, pichan, somon, guruch va makkajo‘xori poyasi va h.k.	1 mashina	25 000
5.	**Qurilish materiallarini sotish:**		
5.1.	Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og‘ir va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotish:		

	6 kvadrat metrgacha	1 o‘rin/kuniga	12 000
	6 kvadrat metrdan – 15 kvadrat metrgacha	1 o‘rin/kuniga	15 000
	15 kvadrat metrdan – 30 kvadrat metrgacha	1 o‘rin/kuniga	18 000
5.2.	Kichik o‘lchamdagi qurilish materiallari *(mayda o‘lchamli),* santexnika, yoritish uskunalarini *(lyustra, svetilniklar va h.k.)* sotish *(6 kvadrat. metrgacha)*	1 o‘rin/kuniga	12 000
5.3.	Bozorlar hududida joylashgan mulkdorlarga tegishli bino va inshootlar oldida qo‘shimcha savdo rastasi o‘rnatib, (yerda) tovarlar joylashtirib savdo faoliyatini amalga oshirganlik uchun to‘lov	1 o‘rin/kuniga	12 000
6.	**Ilgari foydalanishda bo‘lgan buyumlar va ehtiyot qismlarni sotish:**		
	Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	1 o‘rin/kuniga	15 000
	Uy-ro‘zg‘or jihoz buyumlari va kiyim-kechaklar	1 o‘rin/kuniga	12 000
7.	**Avtotransport vositalarini sotish:**		
	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar	1 dona	30 000
	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko‘taruvchi transport vositalari	1 dona	35 000
	mototsikl, motoroller va mopedlar	1 dona	15 000
	tirkamalar	1 dona	15 000
	velosipedlar	1 dona	10 000
8.	**Mol bozoriga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun**		
8.1.	**Ot, toy, tuya**	1 bosh	28 000
	bo‘taloq, eshak	1 bosh	18 000
8.2.	**Yirik shoxli qoramol:**		

	sigir buzog‘i bilan	1 bosh	32 000
	qoramol	1 bosh	28 000
	buzoq *(6 oygacha)*	1 bosh	22 000
8.3.	**Mayda shoxli qoramol:**		
	qo‘y	1 bosh	17 000
	echki	1 bosh	15 000
	qo‘zi	1 bosh	13 000
	uloq	1 bosh	12 000
	qo‘y qo‘zisi bilan	1 bosh	22 000
	echki ulog‘i bilan	1 bosh	20 000
8.4.	**Cho‘chqalar va cho‘chqa bolalari**	1 bosh	18 000
9.	**Uy parrandalari:** kurka, tovuq, o‘rdak, g‘oz	1 bosh	6 000
	tovuq, kurka, o‘rdak, g‘oz jo‘jalari	10 bosh	6 000
10.	**Itlar va mushuklar**	1 o‘rin/kuniga	8 000
11.	**Manzarali qushlar va baliqlar**	1 o‘rin/kuniga	8 000

12.	**Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksessuarlar va buyumlar**	1 o‘rin/kuniga	7 000
13.	**Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar, shuningdek ularning ozuqalari va tegishli aksessuarlar va buyumlar,** bir joyda	1 o‘rin/kuniga	8 000
14.	**Poyabzal ta’mirlash xizmati**	1 o‘rin/kuniga	8 000

II. Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi:

1.1.	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv. metr oyiga	22 000
1.2.	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv. metr oyiga	22 000
1.3.	Umumiy ovqatlanish	1 kv. metr oyiga	22 000
1.4.	Maishiy xizmat ko‘rsatish	1 kv. metr oyiga	15 000
1.5.	Boshqa turlar *(ombor, ofis, dorixona, pay net va h.k.)*	1 kv. metr oyiga	16 000
1.2	**Bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino, inshoot va qurilmalar mulk egalarining bozor infratuzilmasidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi.**		
1.2,1.	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv. metr oyiga	16 000

1.2,2.	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv. metr oyiga	16 000

1.2,3.	Umumiy ovqatlanish	1 kv. metr oyiga	20 000
1.2,4.	Maishiy xizmat koʻrsatish	1 kv. metr oyiga	15 000
1.2,5.	Boshqa turlar *(ombor, ofis, dorixona, pay net va h.k.)*	1 kv. metr oyiga	14 000
1.3	**Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshootlarning ikkinchi va undan yuqori qavatlaridan foydalanganligi uchun ijara toʻlovi**	1 kv. metr oyiga	12 000
1.4	**Bozorlar va savdo komplekslari hududida joylashgan mulkdorlarga tegishli bino va inshootlarning ikkinchi va undan yuqori qavatlaridan foydalanganligi uchun ijara toʻlovi**	1 kv. metr oyiga	10 000
1.5	**Bozor va savdo komplekslariga tutash joylashgan mulkdorlarga tegishli boʻlgan bino va inshootlardan bozor infratuzilmasidan foydalanganligi uchun ijara toʻlovi**	1 kv. metr oyiga	12 000
1.6	**Bozor va savdo komplekslariga tutash joylashgan mulkdorlarga tegishli boʻlgan bino va inshootlarning ikkinchi va undan yuqori qavatlarida bozor infratuzilma- sidan foydalanganligi uchun ijara toʻlovi**	1 kv. metr oyiga	6 000
2.	**Inventarlarni ijaraga berish:**		
2.1.	**Tosh-tarozilar uchun**	1 kv. metr oyiga	4 000

2.2.	**Katta yuk tortish tarozilari uchun**		
	150 kilogrammgacha	1 kuniga	6 000
	150 kilogrammdan 1500 kilogrammgacha	1 kuniga	15 000
2.3.	**Savdo jihozlari uchun** *(bolta, taxtakach, pichoq, o‘rindiq, voronka, patnis, savat va h.k.) (butun to‘plam uchun, bunda to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)*	1 kuniga	6 000
2.4.	**Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun** *(xalat, etak, yenglik) (butun to‘plam uchun, bunda to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)*	1 kuniga	3 000
2.5.	**Mahsulotlar uchun brezent berish**	1 kuniga	5 000
2.6.	**Aravachalar uchun**	1 kuniga	7 000
2.7.	**Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun** *(1 kvadrat metr)*	1 kuniga	5 000
3.	**Ko‘rsatiladigan xizmat turlari:**		
3.1.	**Qishloq xo‘jalik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash:**		
	sovitkichlarda (*har bir yashik, qop va h.k. uchun*)	1 kuniga	6 000
	omborxonalarda, saqlash kameralarida *(har bir yashik, qop va h.k. uchun)*	1 kuniga	6 000
	bozor hududidagi rastalarda va ochiq joylarda *(savdo o‘rni hisobidan)*	1 kuniga	4 000
3.2.	**Buyumlarni omborlarda saqlash** *(bir 50x50x100 o‘lchamdagi joy uchun)*	1 kuniga	5 000
3.3.	**Mahsulotlarni tarozida tortish:**		
	katta yuk tarozida	1 marta tortish	5 000
	yirik va mayda shoxli qoramolni tortish	1 marta tortish	6 000
3.4.	**Avtotarozilardan foydalanish:**		
	yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo‘lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlardan:		
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	7 000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	5 000
	yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnagacha bo‘lgan tirkamali va yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan:		
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	6 000

	yuksiz	1 marta o‘lchash	5 000
	yengil avtomashinalardan:		
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	5 000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	4 000
	tirkamali yengil avtomashinalardan:		
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	6 000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	5 000

3.5.	**Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash uchun:**		
	yengil avtomashinalar uchun	1 soatga	3 000
	yuk avtomashinalari uchun	1 soatga	5 000
3.6.	**Hojatxona xizmatidan foydalanish**	1 marta	2 000
3.7.	**Telefondan foydalanish**	1 marta	1 000
3.8.	**Radiouzel orqali e'lon berish**	3 marta takror	2 000
3.9.	**Umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar** *(asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan yo'laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo'g'inlari, umumiy hududni qo'riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig'ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlari)**	1 kv. metr oyiga	10 000

Ushbu xizmatlar bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlar mulkdorlariga ko'rsatiladi hamda ular uchun kadastr hujjatlarida ko'rsatilgan egallagan yer maydonlaridan kelib chiqib haq to'lanadi.

Jumladan:

1.Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xalq iste'moli mollari va boshqa buyumlar bilan savdo qilinganida, bir joy (savdo o'rni) o'lchami 1-1,2 pogon metr deb belgilanadi va shu o'lchamdan ortiq o'rin uchun qo'shimcha ravishda har bir savdo o'rni uchun belgilangan bir martalik yig'im miqdorida joy haqi undiriladi.

2.Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xalq iste'moli mollari aralash holda sotilganida, bir martalik yig'im sotiladigan mahsulot turlari bo'yicha belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha undiriladi.